O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Yerto‘la devorlari uchun beton bloklar

Texnik shartlar

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

So‘z boshi

1. STQ 21 “Qurilish va uy-joy kommunal” sohasida standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita tomonidan **ISHLAB CHIQILDI**.

2. O‘zbekiston standartlar institutining 2025-yil 4- Avgustdagi 98/MSt-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI**.

3**. O‘z Dst 778:97 O‘RNIGA ISHLAB CHIQILDI.**

4. Ushbu standart amalga kiritilgandan so‘ng ГОСТ 13579- 2018 “Блоки бетонные для стен подвалов. Технические условия” davlatlararo standarti O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilishi to‘xtatiladi.

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

Mundarija

1	Qo‘llanish doirasi	1
2	Standartlarga havolalar	1
3	Atamalar va ta’riflar	2
4	Bloklarning turlari va konstruksiyasi	2
5	Texnik talablar	8
6	Qabul qilish qoidalari	10
7	Nazorat usullari	10
8	Tamg‘alash	11
9	Transportda tashish va saqlash	11
10	Xavfsizlik va atrof – muhitni muhofaza qilish talablari	12
11	Ishlab chiqaruvchi kafolatlari	12
	A Ilova (normativ) O‘rnatish ilmoqlari	13
	Bibliografiya	14
	Bibliografik ma’lumotlar	15

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Yerto‘la devorlari uchun beton bloklar
Texnik shartlar

Блоки бетоные для стен подвалов
Технические условия

Concrete blocks for basements
Specifications

Amalga kiritish sanasi: 04.09.2025 yil

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart og‘ir betondan, shuningdek o‘rtacha zichligi 1800 kg/m^3 dan kam bo‘lmagan yengil va zich silikat betondan tayyorlanadigan hamda binolarning yerto‘la va texnik yerto‘la devorlari uchun mo‘ljallangan bloklarga tatbiq etiladi.

Ushbu standart yerto‘la devorlari beton bloklarining turlari va konstruksiyalarini, ularga qo‘yiladigan texnik talablarni belgilaydi.

Yaxlit bloklarni poydevorlar uchun qo‘llashga ruxsat etiladi.

2 Standartlarga havolalar

Ushbu standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanildi:

O‘z DSt ISO 1920-7:2019 (ISO 1920-7:2004, IDT) Betonni zararsiz sinov sinovidan o‘tkazish - 7-qism. Qattiqlashtirilgan beton ustunidan qattiq bo‘lmagan sinovlar

ГОСТ 12.0.004-2015 Система стандартов безопасности труда (ССБТ). Организация обучения безопасности труда. Общие положения

ГОСТ Р 12.3.047-2012 Система стандартов безопасности труда. Пожарная безопасность технологических процессов. Общие требования. Методы контроля

ГОСТ 12.1.005-88 Система стандартов безопасности труда. Общие санитарно – гигиенические требования к воздуху рабочей зоны

ГОСТ 12.3.009-76 Система стандартов безопасности труда. Работы погрузочно-разгрузочные. Общие требования безопасности

ГОСТ 17.2.3.01-86 Охрана природы. Правила контроля качества воздуха населенных пунктов

ГОСТ 17.2.3.02-2014 Правила установления допустимых выбросов вредных веществ промышленными предприятиями

ГОСТ 17.4.3.05-86 Охрана природы. Почвы. Требования к сточным водам и их осадкам для орошения и удобрения

ГОСТ 10060—2012 Бетоны. Методы определения морозостойкости

ГОСТ 10180—2012 Бетоны. Методы определения прочности по контрольным образцам

ГОСТ 10922—2012 Арматурные и закладные изделия, их сварные, вязаные и механические соединения для железобетонных конструкций. Общие технические условия

ГОСТ 12730.0—2020 Бетоны. Общие требования к методам определения плотности, влажности, водопоглощения, пористости и водонепроницаемости

ГОСТ 12730.2—2020 Бетоны. Метод определения влажности

ГОСТ 12730.3—2020 Бетоны. Метод определения водопоглощения

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

Rasmiy nashr

ГОСТ 12730.5—2018 Бетоны. Методы определения водонепроницаемости

ГОСТ 13015—2012 Изделия бетонные и железобетонные для строительства. Общие технические требования. Правила приемки, маркировки, транспортирования и хранения

ГОСТ 17624—2021 Бетоны. Ультразвуковой метод определения прочности

ГОСТ 18105—2018 Бетоны. Правила контроля и оценки прочности

ГОСТ 21718—84 Материалы строительные. Диэлькометрический метод определения влажности

ГОСТ 22690—2015 Бетоны. Определение прочности механическими методами неразрушающего контроля

ГОСТ 26433.0—85 Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Общие положения

ГОСТ 26433.1—89 Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Элементы заводского изготовления

ГОСТ 30244-94 Материалы строительные. Методы испытания на горючесть

ГОСТ 34028—2016 Прокат арматурный для железобетонных конструкций. Технические условия

O‘z DSt 12.0.001:2005 Mehnat xavfsizligi, mehnatni ilmiy tashkil qilish sanoat-sanitariya va gigiyenasi, standartlari tizimi. Asosiy qoidalar

Izoh: Ushbu milliy standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlariga muvofiq standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilinishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan (o‘zgartirilgan) bo‘lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o‘zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agarda havola qilinayotgan standart almashtirilmasdan bekor qilingan bo‘lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo‘lmagan qismida qo‘llaniladi

3 Atamalar va ta’riflar

Ushbu standartda tegishli ta’riflar bilan quyidagi atamalar qo‘llanilgan:

3.1 **blok**: Odatda zavod sharoitida ishlab chiqariladigan, og‘irligi o‘n kilogrammdan bir necha tonnagacha bo‘lgan konstruktiv yig‘ma element yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi mahsulot.

3.2 **beton blok**: Foydalanish bosqichida mustahkamligi betonning o‘zi bilan ta’minlanadigan blok. Agar blokda konstruktiv armatura yoki cheklangan maydonlarda - kuchlar to‘plangan hududlarda ishchi armatura mavjud bo‘lsa, u temir-beton blok hisoblanadi.

3.3 **yerto‘la devorlari uchun beton blok**: Yerto‘la devorlarini yoki binoning texnik yerto‘lasini qurish uchun ishlatiladigan beton blok.

4. Bloklarning turlari va konstruksiyasi.

4.1 Bloklar uch turga bo‘linadi:


FBS – yaxlit blok;

FBV - yerto‘lalar va texnik yerto‘lalar shiftlari ostidan kommunikatsiyalarni o‘tkazish va peremichkalarni yotqizish uchun o‘yiqlik blok;


FBP - bo‘shliqli (bo‘shliqlari pastga ochiq) blok.

4.2 Bloklarning shakli va o‘lchamlari 1,2,3-rasmlarda va 1-jadvalda ko‘rsatilganlarga mos kelishi kerak.


STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"



A-kengligi 300 mm bo‘lgan bloklar
B-kengligi 400, 500, 600 mm bo‘lgan bloklar




P1-P4- o‘rnatish ilmoqlari
1-rasm FBS turidagi bloklar



STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

P1-o‘rnatish ilmoqlari

2-rasm FBV turidagi bloklar



P2-o‘rnatish ilmoqlari


3-rasm FBP turidagi bloklar

1-jadval

Blok turi	**Blokning asosiy o‘lchamlari, mm**		
	Uzunligi l	**Kengligi b**	**Balandligi h**
FBS	2380	300 400 500 600	580
	1180	400 500 600	
		400 500 600	280
	880	300 400 500 600	580
FBV		400 500 600	
FBP	2380	400 500 600	580
Izoh — buyurtmachi va tayyorlovchi korxona o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra, amaldagi uskunalarda ushbu jadvalda ko‘rsatilganidan boshqacha o‘lchamdagi bloklarni tayyorlashga ruxsat etiladi.			

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

4.3 Bloklarning shartli belgilanishi (markalari) tuzilmasi quyidagicha:



Uzunligi 2380 mm, kengligi 400 mm va balandligi 580 mm bo‘lgan og‘ir betondan tayyorlangan FBS turidagi blokning shartli belgilanishi (markasi) ga misol:

FBS 24.4.6-T O‘zMSt__:202_ mazkur standartning belgilanishi.

Xuddi shunday, uzunligi 880 mm, kengligi 400 mm va balandligi 580 mm bo‘lgan yengil betondan tayyorlangan FBV turli:

FBV 9.4.6-L O‘zMSt__:202_ mazkur standartning belgilanishi.

Xuddi shunday, uzunligi 2380 mm, kengligi 500 mm va balandligi 580 mm bo‘lgan FBP turli zich silikat betondan tayyorlangan:

FBP 24.5.6-S O‘zMSt__:202_ mazkur standartning belgilanishi.

Izoh - Bloklar markalarining belgilanishini namunaviy konstruksiyalarning ish chizmalariga muvofiq qabul qilishga ruxsat etiladi.

4.4 Og‘ir betondan tayyorlangan bloklarning markalari va xususiyatlari 2-jadvalda, yengil betondan tayyorlanganlari 3-jadvalda, zich silikat betondan tayyorlanganlari 4-jadvalda keltirilgan.

Tegishli asoslanganda, siqilishga mustahkamligi bo‘yicha 2-4-jadvallarda ko‘rsatilganidan farq qiladigan sinflardagi betonlardan tayyorlangan bloklarni qo‘llashga ruxsat etiladi. Bunda barcha hollarda betonning siqilishdagi mustahkamligi bo‘yicha sinfini ko‘pi bilan B 15 va undan kam bo‘lmagan miqdorda qabul qilish lozim:

B 3,5 - og‘ir va yengil beton bloklari uchun;

B 12,5 - zich silikat betondan tayyorlangan bloklar uchun.

Izoh: Betonning siqilishdagi mustahkamligi bo‘yicha 2-4-jadvallarda ko‘rsatilganidan farq qiladigan sinflarga mansub bloklarning shartli belgilanishiga beton turini ifodalovchi V harfi oldiga tegishli raqamli indeks kiritish lozim.

4.5 O‘rnatish ilmoqlarining bloklarda joylashuvi 1-3-rasmlarda ko‘rsatilgandek bo‘lishi kerak. O‘rnatish ilmoqlarining konstruksiyalari A ilovaning A.1-rasmida keltirilgan.

Uzunligi 1180 va 2380 mm bo‘lgan FBS turidagi bloklarda o‘rnatish ilmoqlarini blokning qisqa yon tomonidan 300 mm masofada va uning ustki tekisligiga teng qilib o‘rnatishga ruxsat etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

2-jadval

Blok markasi	Betonning siqilishga bo‘lgan mustahkamlik sinfi	O‘rnatish ilmog‘i		Materiallar sarfi		Betonning massasi (ma’lumot uchun), t
		Marka	Soni, dona.	Beton, m^3	Po‘lat, kg	
FBS 24.3.6-T FBS 24.4.6-T	B 7,5	P2a	2	0,406 0,543	1,46	0,97 1,30
FBS 24.5.6-T FBS 24.6.6-T		PZ		0,679 0,815	2,36	1,63 1,96
FBS 12.4.6-T FBS 12.5.6-T FBS 12.6.6-T		P2		0,265 0,331 0,398	1,46	0,64 0,79 0,96
FBS 12.4.3-T FBS 12.5.3-T FBS 12.6.3-T		P4		0,127 0,159 0,191	0,74	0,31 0,38 0,46
FBS 9.3.6-T FBS 9.4.6-T FBS 9.5.6-T		P1		0,146 0,195 0,244	0,76	0,35 0,47 0,59
FBS 9.6.6-T		P2		0,293	1,46	0,70
FBV 9.4.6-T FBV 9.5.6-T FBV 9.6.6-T		P1		0,161 0,202 0,243	0,76	0,39 0,49 0,58
FBP 24.4.6-T FBP 24.5.6-T FBP 24.6.6-T	B 12,5	P2		0,439 0,526 0,583	1,46	1,05 1,26 1,40

Izoh - Massa qiymatlari o‘rtacha zichligi 2400 kg/m^3 bo‘lgan og‘ir betondan tayyorlangan bloklarni hisobga olgan holda keltirilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

3-jadval

Blok markasi	Betonning siqilishga bo‘lgan sinfi	O‘rnatish ilmog‘i		Materaillar sarfi		Beton massasi (ma’lumot uchun), t
		Marka	Soni, dona.	Beton, m^3	Po‘lat, kg	
FBS 24.3.6-L FBS 24.4.6-L FBS 24.5.6-L	B 7,5	P2a	2	0,406 0,543 0,679	1,46	0,73 0,98 1,22
FBS 24.6.6-L		PZ		0,815	2,36	1,47
FBS 12.4.6-L		P1		0,265	0,76	0,48
FBS 12.5.6-L		P2		0,331	1,46	0,60
FBS 12.6.6-L		P2		0,398		0,72
FBS 12.4.3-L FBS 12.5.3-L FBS 12.6.3-L		P4		0,127 0,159 0,191	0,74	0,23 0,29 0,35
FBS 9.3.6-L FBS 9.4.6-L FBS 9.5.6-L FBS 9.6.6-L FBV 9.4.6-L FBV 9.5.6-L FBV 9.6.6-L		P1		0,146 0,195 0,244 0,293 0,161 0,202 0,243	0,76	0,26 0,35 0,44 0,53 0,29 0,37 0,44
FBP 24.4.6-L FBP 24.5.6-L FBP 24.6.6-L	B 12,5	P2		0,439 0,526 0,583	1,46	0,79 0,95 1,05
Izoh - Massa qiymatlari, shuningdek montaj halqalarining markasi o‘rtacha zichligi 1800 kg/m^3 bo‘lgan yengil betondan tayyorlangan bloklarni hisobga olgan holda keltirilgan.						

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

4-jadval

Blokning markasi	Betonning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi	O‘rnatish ilmog’i		Materiallar sarfi		Betonning massasi (ma’lumot uchun), t
		Markasi	Soni, dona.	Beton, m^3	Po‘lat, kg	
FBS 24.3.6-S	B 15	P2a	2	0,406	1,46	0,81
FBS 24.4.6-S				0,543		1,09
FBS 24.5.6-S				0,679		1,36
FBS 24.6.6-S		PZ		0,815	2,36	1,63
FBS 12.4.6-S		P1		0,265	0,76	0,53
FBS 12.5.6-S		P2		0,331	1,46	0,66
FBS 12.6.6-S				0,398		0,80
FBS 12.4.3-S		P2a		0,127	0,74	0,25
FBS 12.5.3-S				0,159		0,32
FBS 12.6.3-S				0,191		0,38
FBS 9.3.6-S		P1		0,146	0,76	0,29
FBS 9.4.6-S				0,195		0,39
FBS 9.5.6-S				0,244		0,49
FBS 9.6.6-S				0,293		0,59
FBV 9.4.6-S				0,161		0,32
FBV 9.5.6-S				0,202		0,40
FBV 9.6.6-S				0,243		0,49
FBP 24.4.6-S	B 15	P2	2	0,439	1,46	0,88
FBP 24.5.6-S				0,526		1,05
FBP 24.6.6-S				0,583		1,17
Izoh - Massa qiymatlari, shuningdek o‘rnatish ilgaklarining markasi o‘rtacha zichligi 2000 kg/m^3 bo‘lgan silikat betondan tayyorlangan bloklarni hisobga olgan holda keltirilgan.						

2 - 4-jadvallarga izoh - Po‘lat sarfi ko‘rsatkichlarining qiymatlari mahsulotning smeta qiymatini aniqlash uchun keltirilgan.

4.6 Bloklarni ko‘tarish va o‘rnatish uchun maxsus qamrovchi qurilmalar qo‘llanilganda, ishlab chiqaruvchining iste’molchi va loyihalash tashkiloti bilan kelishuviga ko‘ra, bloklarni o‘rnatish ilmoqlarisiz tayyorlashga ruxsat etiladi.

5 Texnik talablar

5.1 Beton tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar ushbu standartda belgilangan texnik talablarning bajarilishini ta’minlashi va ushbu materiallarga qo‘yiladigan amaldagi standartlar yoki texnik shartlarga mos kelishi kerak.

5.2 Beton

5.2.1 Beton bloklarining haqiqiy mustahkamligi bino yoki inshootning loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan betonning me’yorlangan mustahkamligiga va beton mustahkamligining haqiqiy bir xilligi ko‘rsatkichiga qarab ГОСТ 18105 bo‘yicha belgilangan talablarga javob berishi kerak.

5.2.2 Betonning sovuqqa chidamliligi va suv o‘tkazmasligi loyihada konstruksiyalardan foydalanish rejimiga va qurilish hududining iqlim sharoitlariga qarab, ushbu standartni qabul

STANDARTLAR INSTITUTI #EJSZLBUFBR - 21.04.2025 OOO "BINOKOR BREDAST TECHNOLOGIES"

qilgan Bitim ishtirokchisi bo‘lgan davlat hududida amal qiladigan og‘ir va yengil betonlar hamda zich silikat betonga oid me’yoriy hujjatlarga muvofiq belgilanishi lozim.

5.2.3 Beton, shuningdek, agressiv muhit ta’siri sharoitlarida qo‘llash uchun mo‘ljallangan beton bloklarni tayyorlash uchun materiallar amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga, shuningdek, amalda bo‘lgan me’yoriy hujjatlarning zich silikat betondan tayyorlangan bloklarga qo‘shimcha talablariga javob berishi kerak.

5.2.4 Betonning siqilishga mustahkamligi bo‘yicha sinflari, betonning sovuqqa chidamliligi va suv o‘tkazmasligi bo‘yicha markalari, zarur hollarda esa beton va uni tayyorlash uchun materiallarga qo‘yiladigan talablar (5.4-bandga qarang) bloklarni tayyorlash uchun buyurtmalarda ko‘rsatilgan loyiha talablariga mos kelishi kerak.

5.2.5 Bloklarni iste’molchiga yetkazib berishni beton talab etilgan qo‘yib yuborish mustahkamligiga erishgandan so‘ng amalga oshirish lozim (5.1 ga qarang).

5.2.6 Beton bloklarning me’yorlangan qo‘yib yuborish mustahkamligi qiymatini (siqilishdagi mustahkamlik sinfiga nisbatan foizlarda) quyidagilardan kam bo‘lmagan holda qabul qilish lozim:

50 – B 15 va undan yuqori sinfli beton uchun;

70 – B 12,5 va undan past sinfli beton uchun;

100 - avtoklavda qotuvchi beton uchun.

Betonning me’yorlanadigan qo‘yib yuborish mustahkamligi qiymatini ГОСТ 13015 talablariga muvofiq muayyan bino yoki inshootning loyiha hujjatlari bo‘yicha qabul qilish lozim.

Betonning qo‘yib yuborish mustahkamligi siqilishdagi mustahkamligi bo‘yicha uning sinfiga mos keladigan mustahkamlikdan past bo‘lgan bloklarni yetkazib berish, agar ishlab chiqaruvchi betonning loyihaviy yoshida talab qilinadigan mustahkamlikka erishishini kafolatlasa, ishchi tarkibning beton aralashmasidan tayyorlangan va ГОСТ 18105 ga muvofiq sharoitlarda saqlangan nazorat namunalarini sinovdan o‘tkazish natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

5.2.7 Bloklarni iste’molchiga berishda yengil betonning namligi 12% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

5.3 Armatura buyumlari

5.3.1 Bloklarning o‘rnatish ilmoqlari ГОСТ 34028 bo‘yicha VSt3ps2 va VSt3sp2 markali A240 sinfli issiq prokatlangan silliq sterjenli armaturadan yoki 10GT markali AC300 sinfli davriy profildan tayyorlash lozim.

VSt3ps2 markali po‘latdan tayyorlangan armaturani minus 40 °S dan past haroratda bloklarni ko‘tarish va o‘rnatish uchun mo‘ljallangan o‘rnatish ilmoqlari uchun qo‘llashga ruxsat etilmaydi.

5.3.2 Armatura buyumlari uchun po‘lat markalariga (shu jumladan o‘rnatish ilmoqlariga), shuningdek, armatura buyumlarining ochiq yuzalarini korroziyadan himoya qilishga qo‘yiladigan talablar - ГОСТ 13015 bo‘yicha.

5.3.3 Armatura buyumlarining shakli va o‘lchamlari va ularning bloklardagi holati ishchi chizmalarda ko‘rsatilganidek bo‘lishi kerak.

5.3.4 Payvandlangan armatura va po‘lat quyma buyumlar ГОСТ 10922 talablariga javob berishi kerak.

5.4 Bloklar geometrik parametrlarining aniqligi.

5.4.1 Bloklarning loyihaviy o‘lchamlarining og‘ishi mm dan oshmasligi kerak;

uzunligi bo‘yicha ±13;

kengligi va balandligi bo‘yicha ±8;

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3EJDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

kesim o‘lchamlari bo‘yicha ±5.

5.4.2 Blok yuzalari profilining to‘g‘ri chiziqligidan og‘ishi blokning butun uzunligi va kengligida 3 mm dan oshmasligi kerak.

5.5 Blok yuzalarining sifati

5.5.1 Blok sirtlarining sifatiga qo‘yiladigan talablar - ГОСТ 13015 bo‘yicha.

Bloklarning beton yuzasining quyidagi toifalari o‘rnatiladi:

A3 - bo‘yashga mo‘ljallangan yuza;

A5 - qorishma qatlami bo‘ylab yotqiziladigan keramik plitkalar bilan pardozlash uchun mo‘ljallangan yuzali;

A6 – yuza taraf, pardozlanmaydigan;

A7 – yuza bo‘lmagan, foydalanish paytida ko‘rinmaydigan.

5.5.2 6-bo‘limga muvofiq qabul qilinadigan bloklarning betonida yoriqlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi, yuzadagi mahalliy kirishgan yoriqlar bundan mustasno, ularning kengligi og‘ir va zich silikat betonlardan tayyorlangan bloklarda 0,1 mm dan va yengil betondan tayyorlangan bloklarda 0,2 mm dan oshmasligi kerak.

5.5.3 O‘rnatish ilmoqlari beton oqimlaridan tozalangan bo‘lishi kerak.

6 Qabul qilish qoidalari

6.1 Bloklarni qabul qilish ГОСТ 13015 va ushbu standart talablariga muvofiq partiyalar bilan amalga oshirilishi lozim.

6.2 Betonning sovuqqa chidamliligi va suv o‘tkazmasligi, yengil betonning qo‘yib yuborish namligi, shuningdek, agressiv ta’sir darajasiga ega bo‘lgan muhitda ishlatish uchun mo‘ljallangan beton bloklarning suv shimuvchanligi bo‘yicha bloklarni qabul qilish davriy sinovlar natijalariga ko‘ra amalga oshirilishi kerak.

6.3 Ushbu talablar qo‘yiladigan bloklarning suv o‘tkazmasligi va suv shimuvchanligi bo‘yicha beton sinovlari kamida 3 oyda bir marta o‘tkazilishi kerak.

6.4 Yengil betonning qo‘yib yuborish namligi uchta tayyor blokdan tanlab olingan namunalarni sinash natijalari bo‘yicha oyiga kamida bir marta nazorat qilinishi kerak.

Haqiqiy qo‘yib yuborish namligini baholash har bir nazorat qilinadigan blokni tekshirish natijalari bo‘yicha undan olingan namunalarning o‘rtacha namligi bo‘yicha amalga oshirilishi kerak.

6.5 Betonning mustahkamlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha bloklarni qabul qilish (betonning siqilishga mustahkamligi va qo‘yib yuborishga mustahkamligi bo‘yicha sinfi), o‘rnatish ilmoqlarining ushbu standart talablariga muvofiqligi, geometrik parametrlarning aniqligi, texnologik yoriqlarning ochilish kengligi va bloklarning beton yuzasi toifasi qabul qilish-topshirish sinovlari va nazorati natijalari bo‘yicha amalga oshirilishi kerak.

6.6 Bloklarni geometrik parametrlarning aniqlik ko‘rsatkichlari, beton yuzasining toifasi va texnologik yoriqlarning ochilish kengligi bo‘yicha qabul qilishni tanlab nazorat qilish natijalariga ko‘ra amalga oshirish lozim.

6.7 Bloklarni o‘rnatish ilmoqlarining mavjudligi, markirovka yozuvlari va belgilarining to‘g‘ri qo‘yilganligi bo‘yicha qabul qilishni ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha nuqsonlarga ega bo‘lgan bloklarni chiqarib tashlagan holda yalpi nazorat qilish yo‘li bilan amalga oshirish lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

7. Nazorat qilish usullari

7.1 Betonning siqilishdagi mustahkamligi ГОСТ 10180 bo‘yicha ishchi tarkibning beton aralashmasidan tayyorlangan va ГОСТ 18105 da belgilangan sharoitlarda saqlangan namunalar seriyasi uchun aniqlanishi kerak.

7.2 Bloklarni buzmasdan nazorat qilish usullari bilan sinashda betonning siqilishga haqiqiy bo‘shashish mustahkamligi ГОСТ 17624 va O‘z DST ISO 1920-7 bo‘yicha ultratovush usuli yoki ГОСТ 22690 bo‘yicha mexanik ta’sir ko‘rsatuvchi asboblar yordamida, shuningdek, betonni sinash usullari standartlarida nazarda tutilgan boshqa usullar bilan aniqlanishi lozim.

7.3 Betonning sovuqqa chidamliligi bo‘yicha markasini ГОСТ 10060 bo‘yicha aniqlash lozim.

Beton bloklarning suv o‘tkazmasligi ishchi tarkibning beton qorishmasidan tayyorlangan namunalar seriyasi uchun ГОСТ 12730.0 va ГОСТ 12730.5 bo‘yicha aniqlanishi kerak.

7.4 Agressiv muhit ta’siri sharoitlarida qo‘llash uchun mo‘ljallangan beton bloklarning suv shimuvchanligini ishchi tarkibning beton qorishmasidan tayyorlangan namunalar seriyasida ГОСТ 12730.0 va ГОСТ 12730.3 talablariga muvofiq aniqlash lozim.

7.5 Yengil beton namligini ГОСТ 12730.0 va ГОСТ 12730.2 bo‘yicha tayyor bloklardan tanlab olingan namunalarni sinash orqali aniqlash lozim.

Har bir blokdan kamida ikkita namuna olish kerak.

Bloklar betonining namligini ГОСТ 21718 bo‘yicha dielkometrik usulda aniqlashga ruxsat etiladi.

7.6 Bloklarning o‘lchamlari va to‘g‘ri chiziqligidan og‘ishlari, o‘rnatish ilmoqlarining holati, texnologik yoriqlarning ochilish kengligi, beton bloklarining o‘yiqlari, oqimlari va chetlarining o‘lchamlari ГОСТ 26433.0 va ГОСТ 26433.1 da belgilangan usullar bilan aniqlanishi kerak.

8 Tamg‘alash

8.1 Bloklarni tamg‘alash ГОСТ 13015 talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

8.2 Belgilash yozuvlari va belgilari blokning yon sirtiga tushiriladi.

Tayyorlovchining iste’molchi va loyihalash tashkiloti - muayyan bino loyihasining muallifi bilan kelishuviga ko‘ra markalar o‘rniga bloklarga ularning muayyan binoning loyiha hujjatlarida qabul qilingan qisqartirilgan shartli belgilarini tushirishga yo‘l qo‘yiladi.

8.2 Transportda tashish va saqlash

8.2.1 Plitalarni saqlash va tashish ГОСТ 13015 va ushbu standart talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

8.2.2 Bloklar markalar va partiyalar bo‘yicha saralangan va bir-biriga zich qilib taxlangan holda shtabellarda saqlanishi kerak.

Bloklardan iborat shtabelning balandligi 2,5 m dan oshmasligi kerak.

8.2.3 Saqlash va tashishda har bir blokni qistirmalarga yotqizish kerak.

Qistirmalar ish chizmalarida ko‘rsatilgan joylarda, bunday ko‘rsatmalar bo‘lmaganda esa bloklar qatorlari orasida vertikal bo‘yicha bir-birining ustiga joylashtirilishi kerak.

Bloklarning pastki qatori ostiga qo‘yiladigan ostqliklar zich, yaxshilab tekislangan asosga yotqiziladi.

8.2.4 Qistirmalarning qalinligi kamida 30 mm bo‘lishi kerak.

8.2.5 Tashish paytida bloklar siljishdan ishonchli tarzda mahkamlanishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3238GH4K | 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

Tashish paytida shtabel balandligi transport vositalarining yuk ko‘tarish qobiliyati va ruxsat etilgan yuklash o‘lchamlariga qarab belgilanadi.

8.2.6 Bloklarni ortish, tashish, tushirish va saqlash ularni shikastlanish ehtimolini istisno qiluvchi choralarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak.

8.2.7 Iste’molchiga yetkazib beriladigan bloklarning sifati to‘g‘risidagi hujjatga qo‘yiladigan talablar - ГОСТ 13015 bo‘yicha.

Bundan tashqari, bloklarning sifati to‘g‘risidagi hujjatda betonning sovuqqa chidamliligi va suv o‘tkazmasligi, shuningdek suv shimuvchanligi bo‘yicha markalari (agar bu ko‘rsatkichlar bloklarni tayyorlash uchun buyurtmada ko‘rsatilgan bo‘lsa) keltirilishi kerak.

9 Xavfsizlik va atrof – muhitni muhofaza qilish talablari

9.1 Bloklar ГОСТ 30244 bo‘yicha yonmas mahsulotlar guruhiga kiradi.

9.2 Bloklarni ishlab chiqarishda O‘z DSt 12.0.001 bo‘yicha umumiy xavfsizlik talablariga rioya qilinishi kerak.

9.3 Ishlab chiqarish xonalari ГОСТ 12.1.005 va [1] bo‘yicha. Umumiy almashuv, oqib keluvchi, havo so‘radigan shamollatish [2] va ГОСТ Р 12.3.047 bo‘yicha yong‘in o‘chiruvchi uskunalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

9.4 Ishlab chiqarish xonalarni mikroiqlimi [3] talablariga javob berish kerak.

9.5 Ishlab chiqarish korxonasining ishlab chiqaruvchi va qo‘shimcha xonalari, [4] talablariga javob berishi kerak.

9.6 Bloklarni ishlab chiqarishda mashg‘ul bo‘lgan shaxslar amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlangan bo‘lishlari kerak.

9.7 Bloklarni ishlab chiqarishda qatnashadigan ishchilar ishga tushishdan oldin davriy tibbiy ko‘rikdan, ГОСТ 12.0.004 bo‘yicha ish joyida texnika xavfsizligi bo‘yicha instruktaj o‘tishlari kerak.

9.8 Ish joylarida shovqinlik darajasi va tebranishi [5] va [6]da o‘rnatilgan miqdordan oshmasligi kerak.

9.9 Ortish-tushirish ishlarida ГОСТ 12.3.009 talablariga rioya qilinishi kerak.

9.10 Bloklarni ishlab chiqarishda ГОСТ 17.2.3.02 bo‘yicha atrof muhitni himoyalash talablariga rioya etish lozim, aholini sifatli havosini ta’minlashni nazorat qilish qoidalari bo‘yicha ГОСТ 17.2.3.01, [7] ga muvofiq bo‘lishi kerak.

9.11 Ishlab chiqarish oqava suvlarga talablar ГОСТ 17.4.3.05 bo‘yicha.

9.12 Ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish, saqlash va utilizatsiyasida [8] talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.


10 Ishlab chiqaruvchi kafolatlari

Ishlab chiqaruvchi iste’molchi ushbu standartda belgilangan bloklarni qo‘llash va saqlash shartlariga rioya etganida bloklarning ushbu standart talablariga muvofiqligini ta’minlaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

A Ilova
(normativ)
O‘rnatish ilmoqlari

A.1-rasmda va A.1-jadvalda P1, P2, P2a, P3, P4 o‘rnatish ilmoqlari keltirilgan.



A.1-rasm - P1, P2, P2a, P3, P4 o‘rnatish ilmoqlari

A.1-jadval - Bitta o‘rnatish ilmog’iga po‘latning tasnifi va namunasi

O‘rnatish ilomog‘ining markasi	Pozitsiya	Armatura sinfi	Diametri, mm	Uzunligi, mm	Soni, dona	Massasi, kg
P1	1	A240	8	970	1	0,38
P2, P2a	2	A240	10	1180		0,73
P3	3	A240	12	1330		1,18
P4	4	A240	8	940		0,37

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

Bibliografiya

[1]	ShNQ 2.04.05-22	Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash
[2]	SanQvaN 0294-11	Ish joylari havosidagi zararli moddalar ruxsat etilgan miqdorining gigiyena normativlari
[3]	SanQvaN 0324-16	Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimining sanitariya-gigiyena me‘yorlari
[4]	ShNQ 2.09.02 - 23	Korxonalarning ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari
[5]	SanQvaN 0325-16	Ish joylarida ruxsat etilgan shovqin darajalarini sanitariya normalari
[6]	SanQvaN 0326-16	Ish joylarida umumiy va mahalliy tebranish bo‘yicha sanitariya me‘yorlari
[7]	SanQvaN 0053-23	Aholi yashash punktlarining atmosfera havosidagi zararli va zaharli moddalar, produsent mikroorganizmlar, bakterial preparatlar va aeroionlarning ruxsat etilgan gigiyenik me’yorlari
[8]	SanQvaN 0300-11	O‘zbekistonda ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish, inventarizatsiya qilish, tasniflash, zararsizlantirish, saqlash va utilizatsiya qilishni tashkil etishning sanitariya qoidalari va me’yorlari

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

Bibliografik ma’lumotlar

SUT 91.080.40

Muhim so‘zlar: beton blok, poydevor, yerto‘la, texnik yerto‘la, texnik talablar, beton

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ32JDGH4K - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"